



## OGAHIYNING TARIXIY ASARLARI

---

*Kazakboyeva Parvina Aliesher qizi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiyning tarixiy, badiiy asarlari xususida soʻz boradi. Shuningdek, Ogahiyning qisqacha tarixi, Shermuhammad Munisning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi Ogahiyning ilk tajribasi, tarixiy asarlarining qisqacha mazmuni keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Mirab, “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome’ ul voqeati Sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”.

## HISTORICAL WORKS OF OGAHI

*Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*

*Tashkent state university of oriental studies*

*2-course student faculty of Easter civilization and history*

**Abstract:** This article talks about Ogahi's historical and artistic works. Also, a brief history of Ogahi, the first experience of Ogahi in "Firdavs ul-Iqbal" by Shermuhammad Munis, and a summary of his historical works are presented.

**Key words:** Mirab, "Firdavs ul-Iqbal", "Riyaz ud-Dawla", "Zubdat ut-Tawarikh", "Jome' ul Okhudati Sultani", "Gulshani Davlat", "Shahidi Iqbal".

## KIRISH

Oʻzbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon siyosatchi tarixchi sifatida yorqin iz qoldirgan. Xorazm adabiy muhitida Abgʻoziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniy asos solgan yirik tarixnavislik shajarasi bor. Bu shajaraning yirik bir qanoti boʻlgan Ogahiy „Riyoz uddavla“ („Saltanat bogʻlari“, 1842), „Zubdat ut-tavorix“ („Tarixlar qaymogʻi“, 1843—1846), „Jome’ ul-voqeoti sultoniyy“ („Sultonlik voqealarini jamlovchi“, 1855), „Gulshani davlat“ („Davlat gul-shani“, 1865), „Shohidi iqbol“ („Iqbol guvohi“, 1872) va boshqa tarixiy asarlarida Olloqulixon, Rahimqulixon(1843—1846), Muhammad Aminxon (1846 – 1855), Sayid Muhammadxon (1856—1864), Muhammad Rahim II (1864—1910) hukmronligi davrida Xorazmda yashagan oʻzbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoq



xalqlarining tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining boshqa xonliklar bilan munosabati va boshqa tarixiy voqealar aks etgan asarlar yozdi.

### ASOSIY QISM

O‘zbek mumtoz adabiyotiga atoqli hissa qo‘shgan Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘z davrining yetuk yozuvchi shoiri va tarjimon bo‘lgan. U 1809-yilda Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Xiva madrasalarida arab, fors, turk tillarini, shuningdek, boshqa ilm-fan sohalarini puxta egalladi. Ogahiy bolaligidan amakisi— tarixchi, davlatning bosh mirobi Shermuhammad Munis qo‘lida tarbiya topgan. Munis xonadonida o‘z davrining eng mashhur alloma shoirlari to‘planib suhbatlar qilishgan. Shu o‘rinda Muhammad Rizo Ogahiy ham mashhur shoir va olimlar davrasida suhbat qurgan.

Muhammad Rizo Ogahiy amakisi Munis vafotidan so‘ng 1829-yilda Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842-yil) taklifi bilan 20 yoshida saroydagi bosh mirob vazifasiga tayinlangan. Ogahiyning ijodiy rivojlanishida Shermuhammad Munisning o‘rni juda katta. Munis tarixnavis, mohir tarjimon, shoir, xattot va ma‘rifatparvar shaxs edi. U Xiva xoni Eltuzarxon buyrug‘i bilan Xorazm tarixiga oid "Firdavs ul-iqbol" asarini yozdi. Munis o‘z asarini Sherg‘oziyxon davrigacha yozib yerkazilganda Eltuzarxon vafot etib, uning o‘rniga Muhammad Rahimxon I Munisga asarni yozib bitirishni buyurdi. Munis o‘z asarini davom ettirib, unda Xorazmning qadimgi davrlaridan boshlab, 1825-yilgacha bo‘lgan tarixi aks ettirilgan. Ogahiy Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" asarini davom ettirib, adabiy, tarixiy asarni yakunlashni o‘z zimmasiga olgan. Qariyb bir yarim asrdirki, "Firdavs ul-iqbol" jahon miqyosida olimlar e‘tiborini tortib kelmoqda.

"Firdavs ul-iqbol" ning to‘qqizta nusxasi bo‘lib, ulardan ikkitasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sank-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida, oltitasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute xazinasida, bitta nusxasi Xelsinkida saqlanmoqda. "Firdavs ul-iqbol" tarixiy-badiiy asari Ogahiy uchun katta tajriba maktabi bo‘lgan.

Ogahiy Xorazm tarixnavislik an‘analarini davom ettirdi. U 1813-yildan 1874-yilgacha bo‘lgan, Xorazmning sakkiz hukmdori tarixini yozdi. Ular Olloqulixon davriga bag‘ishlangan "Riyoziy ud-davla" (1844), Rahimqulixon davriga bag‘ishlangan "Zubdat ut-tavorix" (1846), Muhammad Aminxon davriga bag‘ishlangan "Jome‘ul voqati Sultoniy" (1856), Sayyid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan "Gulshani davlat" (1865), Muhammad Rahimxon II davriga bag‘ishlangan "Shohidi iqbol" asarlaridir. Bu asarlarda nafaqat o‘zbek xalqining



tarixi, balki, tojik, turkman, qozoq, qirg‘iz, eron, afg‘on, rus xalqlarining tarixi, etnografiyasi, madaniyati va urf-odatlar ham aks etirilgan.

Ogahiyning bu ijodi Markaziy Osiyo tarix fanida juda qimmatli manba bo‘lib xizmat qildi. U xonlarning harbiy yurishlari, xonlikning iqtisodiy ahvoli, qishloq xo‘jaligi, sun‘iy sug‘orish, ilm-fan, madaniyat, shaharlar hayoti, davlat boshqaruviga oid ma‘lumotlar aks ettirilgan katta boylik sanaladi.

Uning “Zubdat ut-tavorix” asarining birinchi qismida Rahimqulixonning tug‘ilishi, ilm o‘rganish, harbiy mahorat, Xazorasp hokimligini boshqargan davri aks ettirilgan. Ikkinchi qismda Rahimqulixonning xonlik taxtiga o‘tirgan vaqtdan to vafotigacha bo‘lgan davri yoritib berilgan. Rahimqulixon har tomonlama ilmi, adolatli hukmdor bo‘lgan. U xalqning ahvolini yaxshilash uchun ko‘plab qonunlar joriy etgan.

Ogahiy jami 6 ta tarixiy asar va 19 ta tarixiy, badiiy asarlarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Mohir tarjimon sifatida Munis tugallay olmay ketgan Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining 2-3-jildlarini, Muhammad Mahdixonning “Nodirnoma” (5 jild), Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirai Muqimxoniy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoi Nosiriy” nomli asarlarini tarjima qilgan. Ogahiy har tomonlama sermahsul ijodkor bo‘lgan. Uning qimmatli asarlari hali ko‘p davrlargacha kelajak avlod uchun xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent. 2010.
2. Munirov. Q . Xorazmda tarixnavislik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 2002.
3. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdat ut tavorix. Nashrga tayyorlovchi Jabborov.N. Toshkent. 2009.